



BUXORO QORAKO'L AKADEMIYASI



KITOB RAQAMI: 8008900 TIP: 1208

TEST TOPSHIRIQLARI KITOBI

Test topshiriqlari kitobi raqami						
8	0	0	8	9	0	0
1	1	1	1	1	1	1
2	2	2	2	2	2	2
3	3	3	3	3	3	3
4	4	4	4	4	4	4
5	5	5	5	5	5	5
6	6	6	6	6	6	6
7	7	7	7	7	7	7
8	8	8	8	8	8	8
9	9	9	9	9	9	9
0	0	0	0	0	0	0

1-30 topshiriqlar
31-61 topshiriqlar
61-90 topshiriqlar

Majburiy fanlar
Biologiya
Kimyo

Familiyangiz _____

Ismingiz _____

Otangizni ismi _____

Ona tili

1. Qaysi gapda *botmoq* soʻzi “nasib qilmoq” maʼnosida qoʻllangan?
A) Oq koʻylagi botdi qizil qoniga.
B) Birovni norozi qilib olingan non bizga botmaydi.
C) Oʻzinga kela olmayapman: Ali akaning gapi menga botdi.
D) Yuraklarda qoʻrquv uygʻotgan dushman kemasi suvga botdi.
2. Qaysi gapdagi ajratib koʻrsatilgan soʻz hol vazifasini bajargan?
A) Qizaloq multfilmni maroq bilan tomosha qilmoqda.
B) Jahli chiqib turgan ekan, boshimga supurgi bilan urib qoldi.
C) Biz soʻqmoq bilan yurib katta yoʻlga chiqdik.
D) Kelishim bilan avval Nigora yugurib chiqishdi.
3. Quyidagi qaysi soʻzlarda nuqtalar oʻrniga “u” unlisi yoziladi?
1) qur...q; 2) qov...rmoq; 3) sov...q; 4) muh...m; 5) shugʻ...llanmoq; 6) yut...nmoq.
A) 1, 2, 3, 5 B) 1, 3, 4, 6
C) 2, 3, 4, 5 D) 2, 4, 5, 6
4. Qaysi javobda berilgan soʻzlar oʻzaro antonym (zid maʼnoli) EMAS?
A) qoʻrqoq, botir B) bahamjihat, noahil
C) ezgu, yovuz D) bugun, kelajak
5. Qoʻshib yoziladigan qoʻshma soʻzlar qatorini toping.
A) bir//oz, har//gal
B) umum//xalq, toʻq//qora
C) jigar//rang, oʻrin//bosar
D) hech//kim, kecha//kunduz
6. Qaysi qatorda berilgan otlarning shakldoshlari feʼl turkumiga mansub?
A) suzma, qazi B) qozon, soz
C) yer, muruvvat D) yoz, boʻz
7. Qaysi gapda hajm-oʻlchov sifati qatnashgan?

- A) Bizning oramizda yalqov kishilarga joy yoʻq, shunga qarab ish tutasizlar.
 - B) Anhor yoqasida oʻsib yotgan yalpizlarning xushboʻy hidi unga bolalik davrini eslatdi.
 - C) Garmdori juda achchiq ekan, tilini kesib yuborganday boʻldi.
 - D) Yuzlari oppoq, sochlari uzun, qoshlari qop-qora bu qizni tanigandekman.
8. Qaysi qatordagi soʻzlarning asoslari ayni bir soʻz sanaladi?
A) oʻsimlik, oʻsma B) yoshlamoq, yoshlik
C) oʻtloq, oʻtkir D) toshqin, toshloq
 9. Qaysi qatorda bir turga mansub olmoshlar keltirilgan?
A) bu, oʻsha, oʻzi
B) kim, qaysi, qayergadir
C) hamma, baʼzi, har kim
D) kimdir, allakim, hech kim
 10. Qaysi qatorda tinish belgisi bilan bogʻliq xato bor?
A) Onajon, siz bor – bizda muammo yoʻq.
B) “Ufq” romani, Said Ahmad qalamiga mansub trilogiyadir.
C) Avval Ali kirdi, keyin boshqalar ham joylarini egallashdi.
D) Yoshlikda olingan bilim, oʻgʻlim, toshga oʻyilgan naqsh kabidir.

Matematika

11. Hisoblang.
$$\underbrace{13 + 13 + 13 + \dots + 13}_{6 \text{ ta qoʻshiluvchi}} + \underbrace{87 + 87 + 87 + \dots + 87}_{6 \text{ ta qoʻshiluvchi}}$$

A) 400 B) 500 C) 600 D) 700
12. Nechta ikki xonali natural son 12 ga qoldiqsiz boʻlinadi?
A) 7 B) 8 C) 9 D) 10
13. Nol raqami 1203559 sonining qaysi xona birligida joylashgan?
A) yuzlar B) minglar
C) oʻn minglar D) yuz minglar
14. Tenglamani yeching.
 $2 \cdot (4 - x) = 3 \cdot (5 - x) - 6$

to'g'risidagi qonun

C) O'zbekiston Respublikasida davlat tili

to'g'risidagi qonun

D) O'zbekiston davlat ramzlarini yangilash

to'g'risidagi qaror

21. Quyida sanab o'tilgan shaxslardan qaysi biri O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining birinchi sekretari vazifasida faoliyat yuritmagan?

A) Amin Niyozov

B) Sobir Kamolov

C) Mahmudxo'ja Behbudiy

D) Nuriddin Muhitdinov

22. Qoraxoniylar davlatida viloyatlarni kimlar boshqargan?

A) arslonxon B) amid

C) eloqxonlar D) kutvol

23. 1533-yil Buxoro xonligining poytaxti etib belgilangan shaharni aniqlang.

A) Buxoro

B) Shahrisabz

C) Qarshi

D) Samarqand

24. 1875-yil Turkiston general-gubernatori K.P.Kaufman bilan shartnoma imzolagan Qo'qon hukmdorini toping.

A) Sheraxlon B) Nasriddinbek

C) Norbo'tabiy D) Xudoyorxon

25. 1433-yilda qaysi shaharda Mirzo Ulug'bek tomonidan madrasa qurdirilgan?

A) Hirotida B) Samarqandda

C) G'ijduvonda D) Buxoroda

26. Amudaryodan shimolda joylashgan boy viloyatlarni arablar nima deb atashgan?

A) Marv

B) Chag'oniyon

C) Movarounnahr

D) Xuroson

27. 2007-yilda Respublikamizda qaysi shaharning 2000 yillik yubileyi nishonlangan?

A) Toshkent

B) Marg'ilon

C) Qarshi

D) Termiz

28. Rossiya imperiyasining Buxoro amirligidagi birinchi vakilining qarorgohi qaysi shaharda joylashgan edi?

A) Buxoro

B) Kattaqo'rg'on

C) Kogon

D) Samarqand

29. Rossiya hukumati tomonidan 1858-yilda Buxoro va Xivaga yuborilgan diplomatik missiya rahbarini toping.

A) A.Byorns

B) N.Ignatyev

C) A.Jenkinson

D) V.Vyatkina

30. Makedoniyalik Aleksandr bosqini davrida o'z mustaqilligini saqlab qolgan davlat(hudud)ni toping.

A) So'g'diyona

B) Xorazm

C) Baqtriya

D) Marg'iyona

Biologiya

31. Quyidagi jadvalga asosanib $a+b+c$ yig'indisini aniqlang?

	Barg po'stidagi hujayralar soni	Barg og'izchalari soni	Shaffof hujayralar soni
1	a	30	440
2	720	60	c
3	640	b	540

A) 1000 B) 1280 C) 1150 D) 960

32. Aminokislotalar uchun xos bo'lgan belgilarni toping.

1) fosfat kislotasi qoldig'iga ega 2) tarkibida pentoza bor 3) rizofera hujayrasidagi nuklein kislotalarda to'rt xil turi uchraydi 4) polipeptid zanjirida peptid bog' yordamida birikadi 5) parchalanganda atsetat kislotasi hosil qiladi 6) translyatsiyada qatnashadi
A) 1, 3 B) 4, 6 C) 3, 5 D) 4, 5

33. Qashqaldaq(a) va arixo'r (b) tegishli ma'lumotlarni aniqlang.

1. issiq qonli organizm 2. diafragma ega 3. ilik suyagi mavjud 4. diafragma ega emas 5. miyachada burmalari mavjud 6. to'rt bo'lmali oshqozonga ega 7. tirik bola tug'adi

A) a-1, 2 b-3, 5 B) a-2, 3 b-4, 6

C) a-1, 5 b-2, 6 D) a-6, 7 b-1, 5

34. Genetik injeneriya sohasiga oid to'g'ri ma'lumotlarni aniqlang.

1) plazmid - zaharli toksin parchalovchi ferment sintezlovchi genetik tuzilma;
2) transpozaza - xromosomada o'z o'rnini o'zgartiradigan irsiy molekula;
3) endonukleaza - DNK molekulasini kesuvchi ferment;
4) EcoRI DNK molekulasini «yopishqoq» uchlar hosil qilib kesuvchi restriktaza;

5) restriktaza-DNK bo'laklarini bir-biriga uchma-uch biriktiruvchi enzim.

- A) 1, 3 B) 3, 5
C) 2, 4 D) 1, 2

35. Genotipik o'zgaruvchanlikni aks ettiruvchi misollarni aniqlang.

- 1) karamning tetraploid turi paydo bolishi; 2) bedaning suv yetarli joyda baland, suv kam joyda past bo'yli bolib o'sishi;
3) uchi chilpilgan novdadan yon novdalarning paydo bolishi;
4) skerda avlodida 3, 4, 5, 6, 7 xromosomal turlarning paydo bolishi.
A) 1, 3 B) 2, 4 C) 2, 3 D) 1, 4

36. Monstera (a), dengiz masxarabozi (b) va oqquyruq (c) uchun xos xususiyatlarni ajrating?

- 1) poykiloterm 2) produsent,
3) konsument 4) toshko'mir davrida paydo bo'lgan
5) trias davrida paydo bo'lgan ,
6) qilquyruq bilan bitta sinfga mansub
A) a-2,4 b-1,6 c- 3,5
B) a-2,4 b-3,6 c-1,3
C) a-1,6 b-3,4 c-3,5
D) a-2 b-1,6 c-3

37. Qirqquloq va psilofitlarning umumiy jihatlarini aniqlang.

- 1) suvdan quruqlikka chiqqan dastlabki quruqlik o'simliklari;
2) ildiz tizimiga ega;
3) sporalari sporangiyalarda yetiladi;
4) poyaning paydo bo'lishi ilk aromorfoz hisoblanadi;
5) bargning paydo bo'lishi ilk aromorfoz hisoblanadi;
6) vegetative organ - poyaga ega.
A) 2, 4 B) 5, 6 C) 3, 6 D) 1, 3

38. Kolibri (1), koala (2) uchun xos bo'lgan xususiyatlarni juftlang.

- a) stenobiont organizm;
b) Avstraliya biogeografik viloyatida tarqalgan;
d) Neotropik viloyatida tarqalgan;
e) ranglarni ajrata olish qobiliyatiga ega; f) nafas yo'llari kiprikchali epiteli bilan qoplangan.
A) 1- b, d, e; 2- a, f
B) 1- a, e, d; 2- b, f, a
C) 1- b, f, a; 2- a, d
D) 1- a, b, e, f; 2- d

39. Gemoglobinga tegishli javobni aniqlang.

- 1) translyatsiya jarayonida hosil bo'ladi; 2) monomerga ega emas;
3) tarkibida glikoliz bog' uchraydi; 4) transport vazifasini bajaradi; 5) tarkibida aminokislota mavjud;
6) glikoliz jarayoniga uchraydi.

- A) 1, 4, 5 B) 2, 3, 6
C) 1, 3, 6 D) 2, 4, 5

40. Urug'i +1°C haroratda ham unib chiqadigan, ikki urug'pallali o'simlikka xos ma'lumotlarni aniqlang.

- 1) qiyshiq gulli o'simlik;
2) yonbargchali;
3) faqat shamol yordamida changlanadi;
4) sachratqi bilan hayotiy shakli bir xil;
5) murakkab bargli o'simlik;
6) to'pguli oddiy shingil.
A) 1, 2, 3, 6 B) 3, 4, 5
C) 2, 4, 5 D) 1, 3, 6

41. Mos ravishda juftlang?

- a) barglarining so'linqirab qolishi; b) ildizi substratga birikish vazifasini bajaradi;
c) tanasida aerenxima mavjud; d) yostiq hosil qilib o'sadi.
1. Yaylov o'simliklari; 2. Qo'g'a;
3. O'qbarg; 4. Suv yong'og'i;
5. Zirako't
A) a- 5; b- 4; c- 3; d- 2
B) a- 3; b- 1; c- 4; d- 2
C) a- 1; b- 2, 3; c- 4; d- 5
D) a- 2; b- 1, 3; c- 4; d- 5

42. Retinoblastoma ko'zning onkologik kasalligi bo'lib, erkaklar va ayollarda bir xil uchraydi. Kasal ota-onalardan kasal farzandlarning tug'ilish ehtimolligi 75%dan 100%gacha bo'ladi. Otasi gomozigota kasal, onasi sog' bo'lgan qiz, sog'lom yigitga turmushga chiqsa, bolalarning 50%i kasal bo'ladi. Ushbu kasallikning irsiylanishi qanday genga bog'liq?

- A) X xromosomaga birikkan dominant genga
B) X xromosomaga birikkan retsessiv genga
C) autosomaga birikkan dominant genga
D) autosomaga birikkan retsessiv genga

43. Uglevod katabolizmida birinchi bosqich bilan kislorodli va kislorodsiz bosqichlardan 1:250 nisbatda energiya ajraldi. Glikoliz bosqichida 200kj to'plangan bo'lsa, aerob bosqichda qancha energiya ajralgan.
A) 6500 B) 5200 C) 2600 D) 2800

44. Chanoq va dung'aza umurtqalariga qanday turdagi birikish xos?

- A) harakatchan birikish
B) harakatsiz chokli
C) chala harakatchan birikish
D) harakatsiz choksiz birikish

45. Ayiqtovonlarni ekologik muhitiga ko'ra to'g'ri juftlang.

- 1) dalalarda, yaylovlarda;

- 2) daryo qirg'oqlari va ariq chetlarida;
 3) botqoqliklarda;
 a – sudraluvchi ayiqtovon
 b – achishtiradigan ayiqtovon
 c – zaharli ayiqtovon

	a	b	C
A	3	2	1
B	2	3	1
C	1	3	2
D	1	2	3

46. Quyidagi keltirilganlardan ikki xivchinli (a) va ko'p xivchinli (b) larni ko'rsating.

- 1) xlomidomonada hujayrasi;
 2) qirqbo'g'imning erkaklik gametasi;
 3) ulotriks gametasi;
 4) qirqquloqning erkaklikgametasi;
 5) funariyaning erkaklik gametasi;6) volvoks hujayrasi;
 7) ulotriksning zoosporasi.
 A) a-2, 4, 7; b-1, 3, 5, 6
 B) a-1, 3, 4, 7; b-2, 5, 6
 C) a-1, 3, 5, 6; b-2, 4, 7
 D) a-2, 7; b-3, 5, 6

47. Quyidagi javoblarda o'simliklar va ularning sistematik birliklari keltirilgan. Qaysi javobda ushbu sistematik birliklar bo'yicha xatolik mavjud?

- A) baobab → gulxayridoshlar → magnoliasimon → gulli o'simlik
 B) skerda → qoqio'tdoshlar → magnoliasimon → magnoliatoifa
 C) qirmizi → tokdoshlar → ikki urug'pallali → magnoliatoifa
 D) xarduma → bug'doydoshlar → magnoliasimon → yopiq urug'li

48. Sog'lom odamda kichik qon aylanish doirasining qaysi qismlari arterial qon harakatida ishtirok etadi?

- 1) kovak vena; 2) chap qorincha;
 3) aorta; 4) o'ng bo'lmacha;
 5) o'pka arteriyasi; 6) o'ng qorincha; 7) chap bo'lmacha;
 8) o'pka venalari;
 A) 2, 3, 7 B) 7, 8 C) 1, 4, 6 D) 5, 6

49. Saygak somatik hujayrasidagi xromosomalar soni drozofila somatik hujayrasidagi autosomalardan 5 marta ko'p bo'lsa, shu hujayra siklining metafaza bosqichidan so'ng xromosomalar soni nechta bo'ladi?

- A) 45 B) 60 C) 30 D) 15


50. DNK molekulasini zanjirida 840 ta vodorod bog' azotli asoslar orasida joylashgan bo'lib, shu bog'larning 40% i adenin va timin orasida joylashgan. DNK molekulasini fragmenti sintezlaydigan oqsida nechta peptid bog'i bor?

- A) 111 B) 110 C) 333 D) 222

51. Quyida keltirilgan hayvonlardagi moslanishlar to'g'ri ketma-ketlikda keltirilgan javobni belgilang.


- 1) korall aspidi; 2) ninabaliq;
 3) gornastoy; 4) gelekonijs;
 5) chupchik; 6) belyanka.
 A) 1-ogohlantiruvchi rang;
 2-maskirovka;
 3-himoya rang;
 4-ogohlantiruvchi rang;
 5-maskirovka;
 6-mimikriya
 B) 1-mimikriya;
 2-mimikriya;
 3-maskirovka;
 4-himoya rang;
 5-maskirovka;
 6-ogohlantiruvchi rang
 C) 1-ogohlantiruvchi rang;
 2-maskirovka;
 3-ogohlantiruvchi rang;
 4-himoya rang;
 5-mimikriya;
 6-mimikriya
 D) 1-ogohlantiruvchi rang;
 2-mimikriya;
 3-himoya rang;
 4-maskirovka;
 5-himoya rang;
 6-ogohlantiruvchi rang

52. Rasmdagi 6 raqami bilan belgilangan miya qismiga mos keluvchi javobni toping?



- A) ko'zni ochib yumish, aksirish, yo'talish kabi reflekslar markazi
 B) ko'z soqqasi va muskullari markazi
 C) ko'rish eshitish chamalash reflekslari markazi
 D) harakat va skelet muskullari tonusini boshqaradi

53. Muskul tuzilishi berilgan ushbu rasmdagi 1 va 5 qismlarda qanday oqsillar uchraydi?



- A) 1 – keratin 5 – kallogen
 B) 1 – elastin 5 – elastin
 C) 1 – tubulin 5 – elastin
 D) 1 – elastin 5 – tubulin

54. Parazit o'simlik(a) va hayvon(b)larni aniqlang:
 1-zarpechak, 2-plazmodiy,
 3-rafleziya, 4-devpechak,
 5-qilbosh, 6-buzoqbosh, 7-askarida, 8-vertitsil, 9-krot,
 10-nereida

- A) a-1,4,5,8; b-2,6,7
 B) a-1,4,5,6; b-2,3,6,7,
 C) a-1,3,4,5; b-2,5,7
 D) a-1,3,4 ; b-2,7,10

55. Faqat evkalipt bargi bilan oziqlanadigan organizmning sistematik birliklari to'g'ri berilgan javobni aniqlang.

- 1-sutemizuvchilar; 2-xaltalilar;
 3-yo'ldoshlilar; 4-juft tuyoqlilar;
 5- umurtqalilar; 6- xordalilar;
 7-yirtqichlar; 8-primatlar
 A) 6, 5, 1, 2 B) 6, 5, 1, 3, 4
 C) 5, 6, 1, 3, 7 D) 1, 3, 4, 8

56. Berilgan rasmdagi oqsil molekulasini qanday tuzilishi hisoblanadi?



- A-oqsilning birlamchi tuzilmasi;
 B-oqsilning ikkilamchi tuzilmasi;
 C-oqsilning uchlamchi tuzilmasi;
 D-oqsilning to'rtlamchi tuzilmasi.

57. Suyaklar soni to'g'ri juftlangan qatorlar sonini toping?


- bosh suyagida jami 23 ta suyak bor
 - ko'krak qafasida jami 25 ta g'ovak suyak bor
 - bitta oyoqda ikkita boldir suyagi bor

- ustki va ostki jag' suyaklar soni yig'indisi to'rtta
 - odam tanasida jami 36 ta toq suyak bor
 A) 5 ta B) 3 ta C) 2 ta D) 4 ta

58. Muskullarni mos ravishda juftlang?

- a)to'rt boshli b)uch boshli c)ikki boshli
 1-yelka suyagining oldingi tomonida qo'lni tirsakdan bukuvchi muskul
 2-sonning oldingi tomonida jolashgan muskul
 3-sonning orqa tomonida oyoqni chanoqdan yozuvchi muskul
 4-yelka orqa tomonida qo'lni tirsakdan yozuvchi muskul
 5-oyoqni tovondan bukuvchi muskul
 A) a-5 b-4 c-1 B) a-2 b-5 c-3
 C) a-1 b-5 c-3 D) a-2 b-4 c-5

59. Rasmda keltilgan organizm skeletiga hos bo'lmagan hususiyatlarni toping?



- A) Kamar suyaklar umurtqa pog'onasiga tutashmaganligi bilan boshqa umurtqalilardan farq qiladi.
 B) Dum umurtqalarida qovurg'alar bo'lmaydi; ular ostida uzun qiltanoq suyakchalar joylashgan
 C) Har bir umurtqaning tanasida bir juftdan ustki va ostki yoylar bor. Ustki qarama-qarshi yoylar o'zaro tutashishi tufayli ular orasida umurtqa nayi hosil bo'ladi.
 D) Qovurg'alarning bir uchi ko'krak umurtqalari, ikkinchi uchi to'sh suyagi bilan harakatchan qo'shilgan

60. Barcha hayotiy shakllarda mavjud brikmani aniqlang.

- A) aminokislota B) dezoksiriboza
 C) ATF D) riboza

Kimyo

61. $C_6H_n(CH_3)_m$ tarkibli arenning 0,2 mol miqdori oksidlanishidan olingan karbon kislota 100 g 40 % li NaOH eritmasini to'liq neytrallashga yetarli bo'lsa, n va m qiymatini aniqlang.


- A) n=1; m=5 B) n=2; m=4
 C) n=3; m=3 D) n=4; m=2

62. 22 g Al, Cu va Zn dan iborat aralashmaga konsentrlangan nitrat kislota ta'sir ettirilganda 27,6 g azot (IV) oksidi hosil bo'ldi. Xuddi shunday massadagi aralashmaga xlorid kislota ta'sir

ettirilganda 5,6 dm³ gaz ajralsa, hosil bo'lgan mis (II)–nitratning massasini (g) aniqlang.


- A) 37,6 B) 18,8
C) 9,4 D) 28,2

63. Quyidagi rasmda berilgan A, B, C reaktivlarni aniqlang.



- A) A–KCl; B–Na₂SO₄; C–HCl
B) A–KCl; B–Na₂SO₄; C–K₂CO₃
C) A–KBr; B–H₂SO₄; C–HNO₃
D) A–K₃PO₄; B–HNO₃; C–NaOH

64. CaCl₂ ning dissotsilanishiga oid grafikka asosan uning dissotsilanish darajasini (%) toping.



- A) 62,5 B) 90
C) 80 D) 82,5

65. Benzil spirt molekulasidagi uglerod atomlarining oksidlanish darajasi yig'indisini aniqlang.

- A) -8 B) -5
C) -6 D) -7

66. Quyidagi jadvaldan foydalanib a ning qiymatini aniqlang.

Ionlar	N(e)	N(p)
X ⁻	n	17
Y ²⁺	n	a

- A) 20 B) 18
C) 16 D) 14

67. 10,7 g Na₂CO₃•xH₂O kristallogidrat HCl bilan ishlanganda, 6,3 g suv hosil bo'ldi. X qiymatini

toping.

- A) 6 B) 7
C) 9 D) 10

68. 89 g yog'ni to'la gidrolizlanishidan 96,6 g bitta karbon kislotaning kaliyli tuzi hosil bo'ldi. Yog'ni aniqlang.

- A) palmitin kislotaning gliserati
B) olein kislotaning gliserati
C) linol kislotaning gliserati
D) stearin kislotaning gliserati

69. 546 °C va 3 atm bosimda hajmi 500 ml bo'lgan gazning normal sharoitdagi hajmini (ml) aniqlang?

- A) 1000 B) 900
C) 600 D) 500

70. 2 litr azot (II) oksid va 10 litr havo aralashtirildi. Azot (II) oksid azot (IV) oksidga to'liq aylanganidan keyin azot (IV) oksid, kislorod va azot gazlarining hajmiy nisbatlarini mos ravishda toping. Havo tarkibida azot va kislorod 4:1 mol nisbatda bo'lgan deb hisoblang. (Hajmlar bir xil sharoitda o'lchangan)

- A) 2:3:6 B) 1:1:4
C) 2:1:8 D) 3:2:4

71. A_(g)+B_(g)↔C_(g)+D_(g) sistemada moddalarning muvozanat holatdagi konsentratsiyalari (mol/l) tenglamaga mos ravishda 7, 4, 2, 14 ga teng. Muvozanat holatdagi sistemadan 2 mol C modda chiqarib yuborildi. B va D moddalarning yangi muvozanat konsentratsiyalarini (mol/l) hisoblang (reaksiya hajmi 1 l bo'lgan idishda olib borildi).

- A) 6,24; 15,64 B) 2,75; 15,75
C) 5,85; 13,48 D) 2,88; 15,12

72. Quyidagi molekula (lar) dan tarkibida π– va σ– bog'lar yig'indisi 4 ga teng bo'lganlarini tanlang.

- 1) KCN; 2) K₂SO₄; 3) KClO₂; 4) K₃PO₄
A) 2; 4 B) 4
C) 1 D) 1; 3

73. $^{250}_{102}\text{No} \rightarrow ^{230}_{96}\text{Cm} + x^4_2\text{He} + y_{-1}^0\text{e}$ ushbu yadro reaksiyasida necha g nobelliy yemirilishidan 2 mol elektron hosil bo'ladi?

- A) 124 B) 480
C) 196 D) 125

74. 0,3 mol natriy xlorid va kalsiy xloriddan iborat aralashmadagi xlor ionini to'la cho'ktirish uchun 500 ml 0,8 molyarli kumush nitrat eritmasi sarflandi. Xloridlar aralashmasining massa tarkibini (g)


aniqlang.

- A) 5,85; 22,2 B) 8,77; 16,65
C) 11,7; 11,1 D) 2,9; 19,9

75. Quyidagi tuzlarning qaysilari gidrolizga uchramaydi?


- 1) natriy sulfat; 2) ammoniy nitrit; 3) litiy nitrat;
4) alyuminiy karbonat;
5) kaliy xlorid; 6) ammoniy atsetat.
A) 4, 5, 6 B) 1, 3, 5, 6
C) 1, 3, 5 D) 2, 4, 6

76. Quyidagi reaksiyada X yog'ning yonishi ifodalangan. Ushbu reaksiyadan foydalanib X yog'ning molyar massasini (g/mol) aniqlang.




- A) 834 B) 806
C) 848 D) 820

77. Quyidagi ma'lumotdan foydalanib X aminni aniqlang.



- A) metiletilamin
B) trimetilamin
C) dietilamin
D) propilamin

78. Quyidagi grafikda $Na_2SO_4 \cdot nH_2O$ tarkibli kristallogidrat tarkibidagi tuzning massasi muvofiq keladigan suvning moli ifodalangan.



Ushbu grafikdan foydalanib n qiymatini toping.

- A) 4 B) 5
C) 6 D) 7

79. "Makcofe" ning 100 g kukuni tarkibida 88,4 gramm uglevod, uglevod tarkibida 72,2 g shakar bor. 20 g kukun 180 g suvda eritilsa, eritmadagi

shakarning massa ulushini aniqlang.

- A) 0,0722 B) 7,22
C) 8,84 D) 0,0884

80. 2 mol NaCl saqlagan eritma 4 F tok bilan elektroliz qilinganda anodda va katodda necha grammdan modda ajraladi?

- A) 71 va 2 B) 87 va 4
C) 87 va 2 D) 71 va 4

81. 30 g to'yingan bir atomli spirt teng ikki qismga ajratildi. Birinchi qismdan karbon kislota sintez qilinib olingan kislota ikkinchi qism spirt bilan eterifikatsiya reaksiyasidan 29 g efir sintez qilindi. Spirtni aniqlang.

- A) Etanol B) Propanol
C) Butanol-2 D) Metanol

82. 0,1mol XH_3 dan 5,5 g X_2O_3 olindi. HXO_3 ning molyar massasini (g/mol) aniqlang.

- A) 98 B) 63 C) 80 D) 78

83. Yopiq idishga atir sepildi. So'ngra o'g'zi berk holatida makkajo'xori tushirildi. Birozdan so'ng idishda hid yo'qoldi. Bunda qanday jarayon sodir bo'lgan?

- A) kimyoviy jarayon
B) Allotropiya
C) Adsorbsiya
D) Dekontatsiya

84. Harorat $10^\circ C$ dan $30^\circ C$ ga ko'tarilganda reaksiya tezligi 4 marta ortadi. Agar harorat $50^\circ C$ dan 293 K ga o'zgartirilganda reaksiya tezligi qanday o'zgaradi.

- A) 8 marta kamayadi
B) 16 marta kamayadi
C) 16 marta ortadi
D) 8 marta ortadi

85. To'g'ri javobni toping.

- Suvda yaxshi eriydi.
- Lakmus rangini o'zgartiradi.
- Tarkibida kislorod 200/7 foizni tashkil etadi.

- A) $Ca(OH)_2$ B) KOH
C) HNO_3 D) H_2SO_4

86. Na_2SO_4 tarkibida ion bog'lanish qaysi atomlar o'rtasida sodir bo'ladi?

- A) S—O B) Na—O
C) Na—S D) S=O

87. Qaysi javobda kislotali oksiddan kislotali oksid olinadi?

- A) $\text{SiO}_2 + \text{C} \rightarrow$ B) $\text{P}_2\text{O}_3 + \text{O}_2 \rightarrow$
C) $\text{NO} + \text{O}_2 \rightarrow$ D) $\text{CO}_2 + \text{C} \rightarrow$

88. $\text{O} \rightarrow \text{S} \rightarrow \text{Se} \rightarrow \text{Te}$ qatorida qaysi xususiyat o'zgarishi xato berilgan.

- A) Elektromanfiylik kamayadi
B) Atom radius kamayadi
C) Metalik ortadi
D) Oksidlovchiligi kamayadi

89. 2-metilbutan kislotasining molekulasida asosiy zanjiridagi 1-2-3-4 uglerod atomlarining oksidlanish darajalarini mos ravishda toping ?

- A) +3;-1;-2;-3 B) +3;-3;-2;-1
C) -3;-1;-2;-3 D) +2;-1;-2;-3

90. 15 % li eritmada 36 g H_2O bug'latildi va to'yingan eritma ($S=25$) hosil bo'ldi. Eritma massasi 2 marta kamaygan bo'lsa, cho'kmaga tushgan tuz massasini (g) toping

- A) 1 B) 2 C) 4 D) 5

Test mualliflari

Ona tili

Mansur SIDDIQOV

Matematika

Muhammadali BOLTABOYEV

Tarix

Asliddin ABDANOV

Biologiya

Rafiqjon QAYIMOV

Kimyo

Sohibjon BOBOYEV